

"O'zkimyosanoat" AJ: tadbirkorlar bilan muloqotlar davom etmoqda

// 26.05.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-tadbirkorlar-bilan-muloqotlar-davom-etmoqd>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan VI ochiq muloqotiga tayyorgarlik jarayonlari doirasida "O'zkimyosanoat" AJ rahbariyati hududlarda tadbirkorlik sub'yektlari va biznes vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazmoqda.



Ushbu muloqotlardan ko'zlangan asosiy maqsad — tadbirkorlarning murojaatlari, taklif va muammolarini tizimli o'rganish hamda ularning yechimi bo'yicha amaliy choralar ko'rishdan iborat.



Jamiyat boshqaruv raising moliya, transformatsiya va xususiylashtirish bo'yicha birinchi o'rinbosari Jahongir Mustafayevning Toshkent shahrida o'tkazilgan uchrashuvlar davomida tadbirkorlar tomonidan xom-ashyo importi, mahsulotlarga muvofiqlik sertifikatlarini rasmiylashtirish, logistika, bojxona bojlari va boshqa yo'nalishlardagi masalalar ko'tarildi.



Muloqotlar davomida tadbirkorlarni qiynab kelayotgan qator muammolar yuzasidan tezkor yechimlar ishlab chiqildi. Qo'shimcha o'rganish va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni talab etadigan masalalar bo'yicha esa amaliy ishlar izchil davom ettirilmoqda.

